



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

1/2024

1/2024



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004

@buxdu_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 11, dekabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoir Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Shaxriddinov F.F., Bozorova B.A., Ibragimov A.K., Yuldashova R.G.	Oziq-ovqat mahsulotlarini vitaminlar bilan boyitish usullari	108
Бердимуратов Х.Т., Рахмонов Э.К., Абдухалилова М.А., Эркинова Г.У., Шойматова Х.К.	Анализ изменения содержания белка в солоде при замачивании ячменя	115
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Нигматова Л.Х.	Контрастивная лингвистика в современном языкознании	124
Bobokalonov R.R., Atojeva G.A.	G'arb tilshunosligida til va nutq bahsi	129
Ataboyev N.B., Abdullayeva N.A.	Inglizcha va o'zbekcha diniy matnlar koprus tahlilida islomiy terminlar va iboralar tadqiqi	134
Bobokalonov R.R., Bekmurodova S.M.	Noverbal nutqning neyropsixolingvistik shartlari va sabablari	138
Bobokalonov R.R., Shamsiyeva U.I., Bekmurodova S.M.	Impact of neuropsycholinguistics on french-speaking society	144
Kuldosheva Sh.O.	Ingliz va o'zbek tillarida pretsedent nomlarning qiyosiy lingvokulturologik tahlili	150
Bobokalonov R.R., Boboqulova M.Sh.	Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxsni xarizmalı insonga integratsiyalash	155
Mayliyeva G.B.	O'zbek va ingliz tillarida sifatning semantik xususiyatlari (T.Drayzerning "Baxtiqaro Kerri" asari 2-bobi tahlili misolida)	161
Bafojeva N.A.	Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani toponimiyasining fonetik, leksik-semantik va so'z qurilishi tahlili	166
Bobokalonov R.R., Nurmatova M.F.	Ayollar nutqining lingvodidaktik xususiyatlari	173
Ruziyeva N.X.	Rate of imposition as the main factor of influencing politeness	180
Qosimova N.F., Safarova Z.Z.	Meaning, inference, and the role of maxims in connection with word stress in pragmatics	185
Sharipova D.Sh.	The place of the symbol in the system of tropics	189
Ummatkulova Ch.A.	Utilizing podcasts to enhance students' listening and speaking skills	195
Rasulov Z.I., Xikmatova Sh.U.	Milliy-madaniy xususiyatga ega til birliklari-ekvivalentsiz leksika va realiyalarni tarjima qilish usullari	201
Xolmuxamedov B.F.	Milliy korpusga bo'lgan ehtiyoj	205
Намозова К.Б.	Тўй маросимлари лексикасининг миллий-маданий хусусиятларининг ўрганилиши	210
Rahmatullayev Sh.	O'zlashma so'zlar asosida shakllangan antroponimlar	217
Кахорова Н.Н.	Reading as psycholinguistic process	221
Холматова В.Н.	Сўрок тузилмаларнинг коммуникатив мазмунидаги силжишлар	225
Mahmudova N.R.	Gradatsiyaning pertseptiv belgilari konseptual sferada farqlanishi	230
Mehmonova Y.Ch.	Terminologik kollokatsiyalarning xususiyatlari va ularning ishlatilishi	237
Tursunov M.M., Egajeva Sh.A.	"Hayot" konsepti yordamida ingliz va o'zbek frazeologik olamini tasvirlash yo'llari	242
Ataboyev N.B.	Korpus lingistikasi: korpus tahlil metodlari yordamida til leksik qatlamining boyishi tadqiqi	247
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Ражабов Д.З., Жамилова Б.С.	Болалар адабиётининг мохир таджикотчиси	254

**“HAYOT” KONSEPTI YORDAMIDA INGLIZ VA O‘ZBEK FRAZEOLIGIK OLAMINI
TASVIRLASH YO‘LLARI**

*Tursunov Mirzo Mahmudovich,
Buxoro davlat universiteti
ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
Egamova Shahnoza Asrorovna,
Buxoro davlat universiteti magistranti*

Annatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning yangi va muhim yo‘nalishi hisoblangan kognitiv tilshunoslikdagi asosiy masala bo‘lmish konsept tushunchasi tahlil qilinadi hamda “hayot” konseptining ingliz va o‘zbek tillari frazeologik olamida talqin qilinishi o‘rganilib, misollar yordamida yoritib berishga harakat qilinadi.

Kalit so‘zlar: antroposentrik paradigma, kognitiv tilshunoslik, konsept, frazeologik olam, frazeologizm, tasviriy ifoda, ibora.

**СПОСОБЫ ОПИСАНИЯ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОГО
МИРА ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПОНЯТИЯ ЖИЗНЬ**

Аннотация. В данной статье анализируется концепт, который является важным вопросом когнитивной лингвистики, которая считается новым и важным направлением языкознания. В то же время была изучена трактовка понятия «жизнь» во фразеологическом мире английского и узбекского языков и предпринята попытка разъяснить ее с помощью примеров.

Ключевые слова: антропоцентрическая парадигма, когнитивная лингвистика, концепт, фразеологический мир, фразеологизм, образное выражение, фраза.

**DESCRIBING PHRASEOLOGIC VIEWS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE VIA
CONCEPTS “LIFE”**

Abstract. This article analyzes concept as an important issue in cognitive linguistics, which is considered a new and important direction of linguistics. At the same time, the interpretation of the concept of "life" in the phraseological world of the English and Uzbek languages is studied, and an attempt is made to clarify it with the help of examples.

Key words: anthropocentric paradigm, cognitive linguistics, concept, phraseological world, phraseological unit, phraseology, figurative expression, phrase.

Kirish. XXI asrga kelib, ayniqsa, ushbu asr oxirlarida, tilshunoslik masalalarida til nafaqat muloqot vositasi, balki ma'lum bir millat yoki insonning ruhiy olami, madaniyati, yashash tarzi hamda fikrlashining o'ziga xos jihatlarini yoritib beruvchi ko'zgu sifatida talqin qilina boshlandi. Shu yondashuv asnosida tilshunoslikda bir qator yangi yo'nalishlar vujudga keldi. Bu yo'nalishlar qatoriga psixolingvistika, matn tilshunosligi, lingvokulturologiya, pragmalingvistika kabilarni kiritishimiz mumkin. Garchi tilshunoslikni bu kabi yo'nalishlarga ajratish XX asrning oxirlariga xos bo'lsa ham, ularning ildizi ancha oldinga, ya'ni, Vilgelm fon Gumbolt, Aleksandr Potebnaya, Edvard Sapir, Benjamin Uorf kabi olimlarning ilmiy ishlariga borib taqaladi. Ular tilni inson ruhiyatini aks ettiruvchi vosita sifatida talqin qilishga harakat qilishgan. Jumladan, mashhur nemis tilshunosi, umumiy tilshunoslik fani asoschisi bo'lmish V.Gumbolt o'zining "On Language" nomli kitobida har bir xalqning tilida o'sha xalqning tarixi, madaniyati va umuman uning ruhiy dunyosi namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Shuningdek, olim til va tafakkurning bog'liqligi haqida to'xtalib, til fikrlarimizni yoritib beruvchi vosita ekanligini, o'y-xayollarimiz tovushlar va umuman olganda til orqali moddiylashishini uqtiradi[8]. XX asrning 30-yillariga kelib, amerikalik tilshunos olim Edvard Sapir va uning shogirdi Benjamin Uorflar o'z asarlarida inson gapiradigan til uning firklash tarzi, o'y-xayollari hamda dunyoni anglash, qabul qilish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatishi haqidagi nazariyani ilgari surishdi [4, 13486-13490]. Shunday qilib, olimlarning shu kabi qarashlari va izlanishlari asosida tilshunoslikda yangi yo'nalish, ya'ni, antroposentrik paradigma paydo bo'ldi. Tilshunoslikdagi ushbu yangi yo'nalish tilni uning sohibi bo'lmish inson bilan, aniqrog'i, uning ruhiyati, ijtimoiy kelib chiqishi, millati, fe'l-atvori, yoshi, jinsi kabi

LINGUISTICS

omillar bilan bog'liq holda tadqiq qiladi. Antroposentrik paradigma esa o'z navbatida tilshunoslikning yangi muhim yo'nalishi bo'lmish kognitiv tilshunoslikning paydo bo'lishida muhim turtki vazifasini o'tadi. Kognitiv tilshunoslik atamasining asosida inglizcha "cognitive-bilishga oid" so'zi bilan bog'liq bo'lib, unda til va tilshunoslik masalalari inson tafakkuri bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Yuqorida aytib o'tilganidek, tilshunoslikni kognitiv soha bilan bog'liq holda tahlil qilishning ildizlari ancha qadimiy bo'lsada, kognitiv tilshunoslik atamasining vujudga kelishi amerikalik tilshunoslar J.Lakoff, R.Langaker, R.Jakendofflarning ilmiy ishlari bilan bog'liq. 1980-yillarda mashhur amerikalik kognitiv lingvist olim, Kaliforniya universiteti professori Jorj Lakoff konseptualashtirish jarayoniga yangicha yondashuvlar asosida ilmiy izlanishlar olib bordi. Yana boshqa bir olim, J.Lakoffning vatandoshi va hamkasbi Ronald Langaker esa bu davr mobaynida kognitiv grammatika nazariyasi ustida ish olib bordi. Ilk bor 1989-yilda Germaniyaning Duisburg shahrida kognitiv tilshunoslik bo'yicha xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi va unda kognitiv tilshunoslik bo'yicha xalqaro jurnal ta'sis etildi. Bu voqea tom ma'noda kognitiv tilshunoslikning fanda yangi yo'nalish sifatida tug'ilishi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmagan bo'ladi. Bu yo'nalish bo'yicha o'zbek tilshunoslaridan Sh.S.Safarov, D.U.Ashurova, A.E.Mamatov, G'.M.Hoshimovlar izlanishlar olib borishgan. Yurtimizda kognitiv tilshunoslik bo'yicha eng ilg'or izlanishlar o'tkazgan olim Sh.Safarov o'zining "Kognitiv tilshunoslik" asarida quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: "Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatidagi tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir"[6]. Boshqa bir tilshunos olim G'.M.Hoshimov kognitiv tilshunoslikni quyidagicha ta'riflaydi: "Kognitiv tilshunoslik- inson tomonidan borliq dunyo voqeligini til orqali anglanishi o'rganilishi, ya'ni konseptlar vositasida uning in'ikos etilishi, his va idrok qilinishi kabi inson miyasida kechuvchi murakkab konseptual jarayonlar bilan bog'liq muhim yo'nalishidir"[3]. Kognitiv tilshunoslikda o'rganiladigan asosiy muammo konseptdir. Konsept so'zi lotincha "Konseptus-tushuncha" so'zidan olingan bo'lib, bu termin dastlab tilshunoslikda tushuncha so'zining o'rniga qo'llanilgan bo'lsa, hozirgi kunda kognitiv tilshunoslikda tushunchadan ko'ra ancha kengroq mazmuni ifoda etadi. Dunyoning lisoniy tasvirida, ya'ni mavjud voqea hodisalarni til vositalari orqali ifoda etishda konsept muhim o'rin egallaydi. Rus tilshunos olimasi E.S.Kubryakova konseptni "mental tuzilma va turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar jamlanmasi yoki umumlashmasi"[10], -deya ta'kidlaydi. O'zbek tilshunosi O'.Q.Yusupov esa konseptga quyidagicha ta'rif beradi: " tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni, baholashdir"[7] Demakki, konsept orqali, nafaqat so'zning ma'lum bir lug'aviy ma'nosi ifodalangani, balki unga bo'lgan ongimizdagi tasavvurlar, munosabatimiz ham gavdalanadi.

Muhokama. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, kognitiv tilshunoslik fanining vujudga kelishi tilshunoslikka yangicha, shu tilning egasi bo'lmish inson va xalq bilan bog'liq holda talqin qilish imkonini yaratdi. Kognitiv tilshunoslikning shu paytgacha erishgan natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, tabiatdagi turli narsa, hodisalar turli xalq, ya'ni, turli til egalari ongida, tasavvurida turlicha, o'ziga xos bir tarzda gavdalanadi. Konsept esa inson ongida kechuvchi bir necha jarayonlarning mahsuli sifatida ma'lum bir tilda so'zlovchilar tomonidan umumiy bir ma'no sifatida qabul qilingan bo'ladi. Konseptlar butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasi asosida shakllanadi, ma'lum bir vositalari orqali moddiylashib, avloddan avlodga yetib keladi. Ularni yoritib berish uchun ma'lum bir so'z yoki tushunchaning o'zi kamlik qiladi. Shu o'rinda xalqning hayot tajribalari, madaniyati, urf odatlari, yashash tarzi, tarixini o'zida mujassamlashtirgan turli maqollar, iboralar ya'ni frazeologik birliklar konseptlarni mukammalroq ifoda etishda qo'l keladi.

Tilshunoslikda frazeologik birliklar jamlanib, u yoki bu tilning frazeologik olamini hosil qiladi. Tilning frazeologik olami yoki olamning frazeologik tasviri deganda tilning frazeologik birliklar vositasida anglangan va milliy-madaniy qadriyatlarini lingvistik hodisa sifatida yaxlit va soda ko'rinishda aks ettiradigan umumiy tasviri tushuniladi[22]. Bir tilning frazeologiyasini o'rganish orqali ushbu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyati, tarixi, urfodatlarini, fe'l-atvori, yurish-turishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Darhaqiqat, har bir tilning frazeologik olami uning madaniyati haqidagi qimmatbaho manbadir. Ingliz tadqiqotchisi Raymond.V.Gibbsning ta'kidlashicha, insonlar kundalik turmush tarzida bir-biri bilan kamdankam hollarda badiiy tilda suhbat quradi va ushbu holatda fikrni, ayniqsa, mavhum g'oyalarni ifoda etishda turli ibora va maqollar yordamga keladi[2]. Shunday ekan, turli frazeologik birliklar so'zlovchining nutq uslubini bezovchi lingvistik bezaklar emas, balki, tilning ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy o'zaro munosabatni yengillashtiradi, matn uyg'unligini kuchaytiradi, hamda eng asosiysi, insonning anglatmoqchi bo'lgan fikrini ifoda etishni osonlashtirishga yordam beradi. Turli konseptlarni ifodalashda frazeologik birliklar uni ravshan, tushunarli va ta'sirchanroq usulda ifodalashga xizmat qiladi. Frazeologizmlar boshqa tillardagi kabi ingliz va o'zbek tilida ham ushbu xalqlarning o'ziga xos fikrlash tarzini ko'rsatuvchi stereotip sifatida ifodalangani.

LINGUISTICS

Bugungi kunga kelib frazeologiya sohasi tilshunoslikda olib borilayotgan ko'plab izlanishlarning tadqiqot vositasi sifatida fanda mustahkam o'rin egallab, uning taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Frazeologiya tilning lug'at tarkibini tashkil etuvchi turg'un birlikmalar, ya'ni, frazeologizmlarni o'rganuvchi sohasi bo'lib, u qadimgi yunon tilidan olingan va "frasis"- "ibora", "logos"-tushuncha, ta'limot demakdir. Frazeologiya fan sifatida shakllangandan beri ko'p vaqt o'tgani yo'q. Dunyo tilshunosligida olimlar XVIII asrdan boshlab frazeologik birliklarni ilmiy asosda o'rgana boshlashgan[12]. Frazeologiya dastavval stilistika fani tarkibida o'rganilgan. "Frazeologiya" atmasini esa, fanga ilk bor fransuz-shveysar tadqiqotchisi Sharl Balli(1865-1947) olib kirgan. Rus tilshunosi Polivanov ilk bor frazeologiyani alohida fan sifatida o'rganish fikri bilan chiqqan. O'zbek olimlaridan Sh.Rahmatullayev, K.Yusupov, H.G'ulomov, M.Siddiqova, X.Tursunova, K.Bozrboyev A.Zohidov, A.E.Mamatov va M.M.Tursunovlar o'zbek frazeologiyasi masalalarini o'z ilmiy ushlarida tadqiq qilishgan.

Biror tilning frazeologik olami yordamida turli konseptlar yorqinroq tarzda ifoda etiladi. "Konsept" kognitiv tilshunoslikning muhim masalalaridan biri bo'lib, u odatda "tushuncha" atamasi bilan birga keladi, ammo konsept tushunchadan ko'ra anchayin kengroq ma'noni ifodalaydi. Bu xususda mashhur rus tilshunosi olimi Demyankov shunday degan: "Konsept-og'zaki belgining mazmun tomoni, tushuncha esa voqelik. Ular inson hayotining aqliy, ma'naviy yoki hayotiy muhim sohasiga tegishli bo'lgan, odamlarning ijtimoiy tajribasi bilan rivojlangan va mustahkamlangan, ularning hayotida tarixiy ildizlarga ega bo'lgan, ijtimoiy va sub'yektiv ravishda tushunilgan jarayonlardir"[9]. Frazeologik birliklar yordamida kengroq tushuncha anglatadigan konseptlar rang-barang bo'lib, ularga misol tariqasida "vatan", "tinchlik", "muhabbat", "sadoqat", "mehnatkashlik", "yalqovlik", "go'zallik" va hokazolarni keltirish mumkin. Shunday konseptlardan biri bu "hayot" konsepti bo'lib, ingliz va o'zbek tillarining har ikkalasida ham bu konseptni yoritib beruvchi ko'plab frazeologik birliklar mavjud. Shu o'rinda eslatib o'tish joizki, "hayot" konseptining har ikkala, ya'ni, ingliz va o'zbek tillarida ham frazeologik birliklar yordamida ifodalanish usullari yuzasidan bir qator izlanishlar olib borilgan, bu tadqiqotlarda "hayot" konseptining ma'no xususiyatlari jiddiy o'rganilgan, ammo ularning kognitiv jihatlarini va ularni qiyoslagan holda tahlil qilish masalalari hali yetarlicha tadbiiq qilinmagan. Shu sababli, ushbu mavzuni o'rganish, tahlil qilish muhim masala hisoblanadi.

Natija. Qiyoslanayotgan tillardagi lug'atlarni o'rganish mobaynida "hayot" so'zining quyidagi ma'nolari aniqlandi:

Ingliz tilida:

- The period between birth and death, or the experience or state of being alive (Cambridge dictionary)[18]

- The sequence of physical and mental experiences that make up the existence of an individual (Merriam-Webster dictionary)[19]

- The period of the time from birth to death (Macmillan dictionary)[20]

The ability to breathe, grow, produce young, etc. that people, animals, plants have before they die and that objects do not have (Oxford dictionary)[21]

O'zbek tilida:

- Tiriklik, tirik organizmlar-materiyaning eng yuksak shakli (O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi)

- Yashash, mavjud bo'lish, tiriklik. Inson, hayvon, o'simliklarning tug'ilganidan o'lgunga qadar bo'lgan mavjud, yashayotgan holati. (O'zbek tilining izohli lug'ati)

Har ikkala tilda ham "hayot" so'zining ma'nosini tahlil qilar ekanmiz umumiy bo'lgan "tiriklik", "yashash va o'lim orashidagi davr, holat" ma'nolari kelib chiqadi. Ammo yuqorida ta'kidlanganidek, konsept anchayin keng tushuncha bo'lib, uni birgina so'zning izohi bilan to'laligicha ochib berishning imkoni yo'q. Frazeologik olamda hayot so'zi bilan bog'liq iboralarni ko'rib chiqar ekanmiz, ingliz va o'zbek tillarida ushbu konseptning ushbu xalq tasavvuridagi ma'nosini kengroq anglashimiz mumkin. Avvalambor o'xshash jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, har ikkala tilda ham birday mavjud bo'lgan quyidagi iboralar aniqlandi:

F. **Life is too short** - Ushbu iborada hayotning juda qisqa ekanligi va undan unumli foydalanish kerakligi haqidagi g'oya ilgari suriladi. Hayotning abadiy emasligi, undan unumli foydalanish kerakligi haqidagi qarashlar ikkala tilda ham mavjud. Undan tilida ushbu iboraga ekvivalent tarzda "**besh kunlik dunyo**" iborasi ishlatiladi.

G. **The next life- keyingi hayot** (o'limdan keyingi hayot). Har ikkala til so'zlachuvlarining diniy qarashlari asosida shakllangan, o'limdan keying hayotni anglatuvchi ibora ikkala tilda ham bor. O'zbek tilidagi "**boqiy dunyo**" iborasi ham xuddi shu ma'noni ifodalaydi va uning negizida diniy tushunchalar yotadi.

H. **Put your life in smb's hand- hayotini birovni qo'lga tutqazmoq.** Ikkala tilda ham mavjud bo'lgan ushbu ibora hayotini kimgadir ishonib topshirmoq ma'nosini anglatadi.

I. **Came into the world-dunyoga kelmoq.**

LINGUISTICS

He came into the world in 1703.

Mohirabonudan ikki o'gil va ikki qiz dunyoga kelib, to'ngichi-Azizbek...to'rtinchisi bizning Zaynab edi[1].

Ingliz va o'zbek tillarini qiyoslar ekanmiz, har ikkala tilda ham faqat o'ziga xos bo'lgan, ushbu tillar egalari bo'lmish ikkala millatning o'z dunyoqarashlari, olamni anglashlari usullari, urf-odatlari asosida yuzaga kelgan iboralarni uchratishimiz mumkin bo'ladi.

Ingliz tilida:

1. **Life begins at forty.** Bu ibora keyingi asrda Angliya, ayniqsa, Amerikalik ingliz tilida so'zlashuvchilar tilida ommalashgan ibora bo'lib, bu ularning yashash tarzi bilan bog'liq. Ularning fikricha, inson qirq yoshida har taraflama hayotga tayyor bo'ladi.

• Today people in their forties are now able to get married, have children and prosper. As the saying goes: Life begins at forty [11].

2. **Go through life-hayot kechirmoq.** She went through life without ever knowing the truth. (Macmillan Dictionary)

3. **As warm as life** iborada hayot yoqimli, iliq tuyg'ularga yo'g'rilgan holatda tasvirlangan. The feeling you get when you have a friend whom you can trust absolutely is as warm as life itself[15].

4. **Bear a charmed life** iborasi ingliz tilida butunlay betashvish hayot kechirmoq ma'nosini ifodalash uchun qo'llaniladi va yuqoridagi iboradagi kabi ushbu iborada ham hayot konseptining ijobiy jihatlari qamrab olingan. I bear a charmed life, which must not yield tone of woman born. (Shakespeare, Macbeth)

5. **Life is a rollercoaster** iborasi esa hayot doim ham bir tekisda kechmasligi haqidagi fikrni yoritib beradi. My life has been a roller coaster ride, but somehow I have always been able to land on my feet...Martin Landau[13].

O'zbek tilida

1. Dunyo yuzini ko'rmoq. Bu iborada dunyo inson yuziga qiyoslanishini, insonni yuzi orqali tanishimiz kabi dunyoni ham ini ko'rib, anglab boraverishimiz nazarda tutiladi.

-Sen dunyo yuzini ko'rib, chaqaloq ovozing jaranlagan kun soda qishloq xotinlari bilan uyimizda kichkina bir to'y yasay edik [5].

2. Shuningdek, o'zbek tilida "hayot" konsepti xalq ongida diniy qarashlar bilan uyg'unlashgan holda tasvvur uyg'otgan. Bu holatda ko'proq bu dunyoning vaqtinchalik, o'tkinchi, sinovchi dunyo ekanligi talqin qilinadi. Buni quyidagi qiyoslashlarda ham uchratishimiz mumkin: Besh kunlik dunyo, miri (biri) kam dunyo, qaytib kelmas dunyo, o'tar dunyo. - Besh kunli dunyoning loyqa suvini nima qilasan, jannatdagi havsi kavsarni o'yla, ablah. (Oybek, Tanlangan asarlar)

Shuningdek, "hayot" konsepti yoritib berilgan maqollar ham har ikki tilda o'ziga xos madaniy boylikka aylanib ulguragan. Jumladan:

Ingliz tilida:

15. **Life is but a span** Hayotning qisqa ekanligi, undan unumli foidalish kerakligini targ'ib qiluvchi maqol.

Don't waste your time worrying about the small things. Life is but a span. Enjoy every moment and make the most of it [23].

Shuningdek, **Life is short and time is swift** maqoli ham shu ma'noni ifodalaydi.

16. Ingliz tilida hayotning har doim ham bir tekisda silliq kechmasligi, uning o'ziga xos qiyinchiliklarga ega ekanligini haqidagi xalq qarashlarini ifodalovchi bir qancha maqollar mavjud Masalan: **Life is not a bed of roses, Life is not all cakes and ale, Life isn't all bear and skittles, Life isn't all rainbows and unicorns.**

I know it's ugly having to see someone you cared about betray you like that, but life isn't all rainbows and unicorns.

O'zbek tilida esa:

2. **El hayoti yer bilan, yer hayoti suv bilan.** Ushbu maqolda o'zbek xalqining kundalik turmush tarzi yoritilgan bo'lib, qadimdan o'zbeklar ziroatkor xalq hisoblangan, insonlar, asosan, dehqonchilik bilan kun kechirishgan [16].

3. **Hayot bir marta beriladi, Hayot o'tishini kuzatib o'tirmaylik.** Ushbu maqolda hayotning qaytib kelmasligi, undan unumli va mazmunli foydalanish kerakligi haqidagi nasihat jamlangan [17].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek frazeologik olamini hayot konsepti yordamida tasvirlash yo'llari tahlil qilinganda quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchi navbatda, hayot konsepti ikkala til uchun, ikkala madaniyat uchun ham keng ko'lamli tushuncha ekanligiga amin bo'ldik. Ko'plab frazeologik birliklar,

LINGUISTICS

maqollar, matallar yordamida “hayot” konseptini ifoda etish mumkin. Jumladan, ingliz hamda o‘zbek tillaridagi bir-biriga o‘xshaydigan iboralar borki, ularning har ikkalasida ushbu xalqlarning tarixi, madaniyati, urf-odatları, marosimlari hayotning naqadar inson uchun muhim ekanligi, undan unumli foydalanish zarurligi, hayot insonga bir marta berilishi kabi global g‘oyalari o‘sha frazeologik olamni tasvirlashda, o‘sha tushuncha zamirida yotadi. Har ikkala madaniyatda ham hayotdan unumli foydalanish, uni har lahzasini qadrlash va uni bekorga sarflamaslik, o‘z maqsadlariga erishish uchun harakat qilish talqin qilinadi. Shuningdek, har ikkala tilda ham o‘ziga xos, boshqa tillarda uchramaydigan “hayot” konseptini yorituvchi frazeologik birliklar bo‘lib, ular shu xalqning madaniyati, yashash tarzi, o‘ziga xos fikrlash tarzini ifodalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” Sharq.Toshkent,2015.
2. Geeraerts D. and Cuykens H. *The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics*. Oxford University Press, 2007.
3. Hoshimov G.M. *Sistem-struktur tilshunoslik muammolari*. Samarqand, 2010.
4. Lucy J.A., *Sapir-Uorf Hypothesis*, *International Encyclopedia of the Social and Behavioral Sciences*,2001, pages 13486-13490.
5. Oybek Bolalik. – T.: G‘afur Gulom nashriyoti, 2018.
6. Safarov Sh.S. *Kognitiv tilshunoslik*. – Jizzax: Sangzor, 2006.
7. Yusupov O‘.Q. *Ma‘no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamaları xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari*. – Toshkent, 2001.
8. Humboldt W. *“On Language”*. – Cambridge University Press, 1999.
9. Демьянков В.З. Термин “концепт” как элемент терминологической культуры. – М.: “Издательский центр “Азбуковник”, 2007.
10. Кубрякова Е.С. *О когнитивной лингвистике и семантике термина “когнитивный”// лингвистика и межкультурная коммуникация*. – Воронеж, 2001.
11. www.wordscoach.com
12. <https://audiobook.uz/blogs/news/frazeologik-iboralar-va-ularga-misolalar>
13. <https://www.brainyquote.com/>
14. https://play.google.com/store/apps/details?id=dictadv.english.britishmacmillan&hl=en_US
15. <https://idioms.thefreedictionary.com/life>
16. <https://statuslar.uz/hayot-haqida-maqollar-eng-sara-chiroyli-ma-noli-maqollar-to-plami/>
17. <https://statuslar.uz/hayot-haqida-maqollar-eng-sara-chiroyli-ma-noli-maqollar-to-plami/>
18. <https://dictionary.cambridge.org/>
19. <https://www.merriam-webster.com/apps>
20. https://play.google.com/store/apps/details?id=dictadv.english.britishmacmillan&hl=en_US
21. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>
22. <https://ojs.qmii.uz/index.php/ij/article/download/153/51>
23. <https://redkiwiapp.com/en/english-guide/idioms/life-is-but-a-span>